
Xotin-qizlarning doimiy daromadga ega bo'lish yuzasidan qilgan murojaatlari ijobiy hal etildi

Farg'ona shahar hokimi va hokim o'rinbosarlari hamda sektor rahbarlari tomonidan o'tkazilayotgan sayyor qabullarda tushgan murojaatlarning ijobiy hal etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Fuqarolarning doimiy ish bilan band, daromad manbaiga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois ham uyda oilaviy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanish istagini bildirgan fuqarolarga Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan jamg'armalar mablag'lari hisobidan mehnat qurollari ajratilmoqda.

Sayyor qabullar davomida chevarchilik hunariga ega bo'lgan O'g'iloy O'ktamova, Nargizaxon Akbarova va Shaxloxon Mamadalievalar tikuv mashinasi ajratilishida amaliy yordam so'rab murojaat qilishgan edi.

Mazkur murojaatlar ijobiy hal etilib, xotin-qizlarga zamonaviy tikuv mashinalari shahar hokimi o'rinbosari Dilshodaxon Xolmatova tomonidan topshirildi. Xotin-qizlar berilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik uchun Prezidentimiz hamda mas'ullarga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

2022-08-11 16:05:25